



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19982580>

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fanini o'qitishda o'quv materiallari samaradorligini monitoring qilishning zamonaviy mexanizmlari

Ubaydullayev Raximjon Murodilovich –

Farg'ona davlat universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti dekani,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.v.b.,

E-mail: ubaydullayevrahimjon259@gmail.com

Tel: +998 91 660-66-61

***Annotatsiya.** Maqolada jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida o'qituvchilar kontingentida o'tkazilgan jismoniy madaniyat va sog'lomlashtirish jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan anketa so'rovi metodlari orqali o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari monitoringgi berilgan. Maktab o'quvchilar kontingenti bilan ishlayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining jismoniy tarbiya sohasidagi kasbiy-nazariy bilimlarini tahlili yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** monitoring, anketa so'rov, jismoniy madaniyat, salomatlik testi, bolalar sporti, qishloq o'qituvchilari, sog'lomlashtirish, xarakat faollilik.*

Современные механизмы мониторинга эффективности учебных материалов при преподавании физической культуры в общеобразовательных школах

***Аннотация.** В статье изложено результате исследование мониторинги учебного материала по физической культуры контингента учителей физической культуры направленной на совершенствование процесса физической воспитания методом анкетирование. В статье освещен анализ профессионально-теоретических знаний в области физического воспитания учителей физической культуры, работающих с контингентом школьников.*

***Ключевые слова:** мониторинг, анкетирование, физическая культура, проверка здоровья, детский спорт, сельские учителя, оздоровления, двигательные активность.*

Modern mechanisms for monitoring the effectiveness of educational materials in teaching physical education in general secondary schools

***Annotation.** The article presents the result of a study of monitoring the educational material on physical culture of a contingent of physical education teachers aimed at improving the process of physical education by the method of questioning. The article highlights the analysis of professional and theoretical knowledge in the field of physical education of physical education teachers working with a contingent of schoolchildren.*

***Keywords:** monitoring, questionnaire survey, physical culture, health test, children's sports, village teachers, recovery, motor activities.*

KIRISH

Dunyoning barcha ta'lim muassasalari, xususan umumta'lim maktabi o'quvchilari orasida ommaviy sportni rivojlantirish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda salomatlikni saqlash va mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya darsini o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini sport mashg'ulotlari bilan integrasiyalash, maktablardagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yuqori ta'lim bosqichlariga ko'tarish, o'quvchi-yoshlarni har tomonlama rivojlantirish ko'rsatkichlarini kengaytirish mexanizmlarini joriy etish zaruriyatining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, barcha davlatlarda maktab ta'limi o'rta bo'g'ini o'quvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirish eng muhim vazifalardan biri etib belgilanmoqda.

Jahonning etakchi ta'lim muassasalarida, asosan, yoshlarni sportga jalb qilish orqali umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchi yoshlarining hududiy-iqlimiy omillarni hisobga olgan holda jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jismoniy tayyorgarlik sog'lom bo'lishning eng muhim sharti, uning yaxshilanishi esa maktablardagi jismoniy tarbiya darslarining yuqori darajada tashkil etilishiga bog'liq bo'lmoqda. Ammo ta'lim muassasalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishning tashkiliy-uslubiy xususiyatlariga asoslangan, jismoniy tayyorgarlik darajasi har xil bo'lgan o'quvchilarning dastur materiallarini to'liq o'zlashtirishlariga imkon beruvchi samarali uslubiyat to'liq ishlab chiqilmaganligi uning zaruriyatini belgilamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 yanvardagi 65-sonli "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohadagi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal qilishga ushbu tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda SH.X.Xankeldiev, A.Abdullaev, V.G.Kim, P.Xadjaev, T.S.Usmonxo'jaev, A.Tolibjanov, S.Salomov, A.I.Abdiev, R.Xamraqulovlar o'z bilimlari va ko'nikmalarini turli sohalarda amalda qo'llay oladigan sog'lom yosh avlodni tarbiyalash

muammosi jamiyat rivojlanishining ustuvor strategik yo'nalishiga aylanganligi va ta'limning o'rta bo'g'ini o'quv muassasalarida o'quvchilarning harakat tayyorgarligi jismoniy tarbiya yo'nalishlaridan biri ekanligini etarlicha keng o'rganganlar.

Anketa so'rovi uslubi orqali qishloq maktablari ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari hamda kun tartibida tashkil qilinadigan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarida o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish mazmuni va uslubiyatini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tekshirildi. Monitoring shuni ko'rsatdiki, maktab ta'lim tizimida katta o'zgarishlar kuzatilmoqda, bu davlatimizning o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lomlashtirishga qaratilgan jismoniy tarbiya va bolalar sportini rivojlantirish ishlariga ulkan e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.


NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Anketa so'rovida qishloq umumta'lim maktablari, ya'ni Quva tumanidagi 11-,15-,16-,23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida 5-7-sinf o'quvchilari bilan ishlayotgan 26 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchilari ishtirok etdi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sifat tarkibi tahlil qilinib, hamma o'qituvchilar oliy maxsus pedagogik ma'lumotga ega ekanligi aniqlandi. Bunda ularning qishloq maktabidagi pedagogik ish staji quyidagicha qayd etildi: 5 yilgacha-34.8%, 6 dan 10 yilgacha-26.2%, 11 dan 14 yilgacha-14.6%, 16 dan 20 yilgacha -11,8%, 20 yildan ortiq-12.6%.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan asosiy mashg'ulotlar hamda jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun qishloq maktablarining moddiy-sport bazasi monitoringi shuni aniqlash imkonini berdiki, tekshirilayotgan 57.6% qishloq maktablarida jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarini o'tkazish uchun qoniqarli shart-sharoitlar bor, faqat 18.3% maktablarda sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun nisbatan yaxshi sharoitlar mavjud, 24.1% maktablarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun moddiy baza qoniqarli darajada emas, shuningdek o'quvchi yoshlar bilan jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun to'liq sport jihozlari to'plami mavjud bo'lgan maktablar soni aniqlanmadi.

"Qishloq maktablarining 5-7-sinf o'quvchilari qanday shakldagi harakat faolligini afzal ko'rishadi?"-degan savolimizga javoban 37,7% jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'yin sport turlari (futbol va voleybol), 27.7% ochiq havoda o'tkaziladigan milliy harakatli o'yinlarning o'tkazilishini, 34,6% o'qituvchilar esa o'quvchilar engil atletika mashg'ulotlarini afzal ko'rishlarini bildirishgan (1-rasm).



1-rasm.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar uchun harakat faolligining sevimli turlari quyidagilardir: milliy harakatli o'yinlar 26.2%, tanlov bo'yicha harakat faolligining mustaqil shakllari 7.4%, to'p bilan harakatli va sport o'yinlari-37,8% va yugurish mashqlari qo'llaniladigan mashg'ulotlar-28.6%.

"Maktab ta'lim muassasalaridagi mavjud jismoniy tarbiya dasturini qanday baholaysiz va u qo'yilgan talablarga javob beradimi?"-degan savolga o'qituvchilarning 81.6% ijobiy javob qaytarganlar, 15,2% o'qituvchilarning fikricha, hududiy omillar va qishloq maktablarining moddiy-texnika bazasi inobatga olinmagan, bu harakat sifatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi, 3.2. % o'qituvchilar javob berishga qiynalishgan. Afsuski, qishloq maktablarida o'quv kuni rejimida mashg'ulotlarga ertalabki gigienik gimnastika, sinflarda zarur hollarda mashg'ulotlar davomida jismoniy tarbiya daqiqalari, katta tanaffuslarda milliy harakatli o'yinlar, turli xil jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazilmaydi, bu maktab o'quvchilarining salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Maktab ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya dasturining izchilligini baholay turib, 5-7-sinf o'quvchilari bilan ishlayotgan 71,8% o'qituvchilar jismoniy tarbiya dasturi, umuman olganda, oldinga qo'yilgan vazifalarga mos kelishini, 18,8% o'qituvchilar esa nazorat vazifalari o'quvchilarning harakat tayyorgarligiga mos emasligini, 9,4% o'qituvchilar maktab moddiy-texnika bazasi qoniqarsiz ekanligini ko'rsatishgan.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar kontingenti bilan ishlayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining jismoniy tarbiya sohasidagi kasbiy-nazariy bilimlarini tahlil qilish natijasida aniqlandiki, qishloq maktablari o'qituvchilarining nazariy tayyorgarligi qoniqarsiz holatda ekanligi olib borilayotgan jismoniy tarbiya darslari samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va malaka oshirish kurslari orqali o'qituvchilar bilimlarini ancha kengaytirish talab qilinadi. Yuqorida bayon qilingan fikrlar qishloq umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks pedagogik tadqiqotlarni o'tkazish hamda bunda o'quv jarayoniga o'quvchi yoshlarning harakat tayyorgarligini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beruvchi zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun asos bo'ladi. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan olib boriladigan pedagogik jarayonda qo'llaniladigan jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv-ishchi dasturni tahlil qilish bizda qiziqish uyg'otdi.

Umumta'lim maktabida bir yillik ta'lim davomida jismoniy tarbiya davlat dasturida jismoniy tarbiya bo'yicha asosiy amaliy mashg'ulotlarga xar bir sinfdan 68 soatdan vaqt ajratiladi, bu erda o'quvchilar nazariy tayyorgarlikni amaliy mashg'ulotlar jarayonida olishadi. O'quv soatlarining fanlar bo'yicha taqsimlanishini monitoring qilish shuni ko'rsatdiki, 5-sinfdan gimnastika faniga 14 soat ajratilgan, bu 20.6% ni tashkil etadi; engil atletikaga 16 soat ajratilgan, bu 23.5% ni tashkil etadi; sport o'yinlariga 18 soat (26.5%), futbolga 11 soat (16.2%), kurashga 8 soat (8.8%), shaxmatga 3 soat ajratilgan, bu 4.4% ni tashkil qiladi. 6-sinfdan ham o'quv soatlarining yillik ta'lim siklida taqsimlanishi shu tarzda bajarilgan. Biroq 7-sinfdan gimnastikaga ajratilgan soatlar soni 4 soatga qisqargan (5.9%) va yil davomida o'rtacha 10 soatni (17.2%) tashkil etadi.

Engil atletika faniga ajratilgan soatlar soni xam shu tarzda kamaytirilgan bo'lib, 14 soatni tashkil etadi (20.6%), bunda sport o'yinlariga ustunlik berilgan bo'lib, ular 20 soatgacha (29.4%) ko'paytirilgan. Futbol o'yin turiga 1 soat qo'shilgan bo'lib, 12 soatgacha (17.6%) ko'paytirilgan va kurash uchun ajratilgan soatlar miqdori 3 soatga (13,2%) ko'paytirilgan, shaxmatga ajratilgan soatlar soni o'zgarmay qolgan- 3 soat, bu 4.4% ni tashkil qiladi. E'tirof etish lozimki, maktab o'quv-ishchi dasturida suzish mashg'ulotlari uchun soatlar ajratilmagan, bu o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida katta sinflarda Qurolli Kuchlar safiga chaqiriqqacha umumiy harakat tayyorgarligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytiz joizki, gipodinamiya omilining bolalar organizmiga ta'sirini kamaytirish maqsadida jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'zlarining kasbiy darajalarini muntazam takomillashtirib borishlari, bunda o'quvchilarning nazariy tayyorgarligi ahamiyatini kuchaytirgan holda o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishlari maqsadga muvofiq. SHuni inobatga olish lozimki, jismoniy tarbiya bo'yicha nazarda tutilgan ikki soatlik majburiy asosiy mashg'ulotlar, hatto ushbu yosh guruhidagi barcha o'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarda ommaviy bolalar sport turlari mashg'ulotlariga jalb qilinganda ham, gipodinamiya omilini kamaytirish uchun minimal ehtiyojlarni qoplamaydi. Yuqori tashqi harorat sharoitlarida harakat qobiliyatlarini ijobiy shakllantirish, saqlash hamda takomillashtirish maqsadida qizib ketish hollarida gipotermik ta'sirni saqlab qoluvchi o'zgaruvchan yuklamalar rejimiga amal qilish, bunda ularni bajarishda dam olish tanaffuslaridan foydalanish oqilona bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" PF-5847 08.10.2019. Source: www.gov.uz)
2. Ханкельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи. Монография. – Ташкент: 2018, -С. 432. (Khankeldiev Sh.Kh. Physical status of student youth. Monograph. -Tashkent: 2018, -S. 432)
3. Бондаревский Е.Я., Ханкельдиев Ш.Х. Физическая подготовленность учащейся молодежи. Ташкент. Медицина 1986 – 204 с. (Bondarevsky E.Ya., Khankeldiev Sh.Kh. Physical fitness of students. Tashkent. Medicine 1986 - 204 p.)
4. Usmanov, Z. N., Ubaydullaev, R. M. Problems of physical cultural and ozdorovitelnoy raboty in the system of school education.